

**MIGRATSIYA JARAYONIDA BOLALARNING
MOSLASHUVCHANLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH**

Eshonjonov Bobir Zafarjonovich
Guliston Davlat Universiteti tadqiqotchisi
eshonjonovbobur@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola migratsiya jarayonida bolalarning moslashuvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish masalasiga bag'ishlangan. Migratsiya bolalar hayotida sezilarli o'zgarishlarga olib kelishi, ularning psixologik va ijtimoiy holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maqolada moslashuvchanlik kompetensiyasining mohiyati, uning tarkibiy qismlari, migratsiya jarayonida bolalarga ta'sir etuvchi omillar va moslashuvchanlikni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Migratsiya, bolalar, moslashuvchanlik, kompetensiya, psixologik moslashuv, ijtimoiy moslashuv, ta'lim, oila, madaniyat.

Abstract: This article is devoted to the issue of the formation of children's adaptive competencies in the process of migration. Migration can lead to significant changes in the lives of children, affecting their psychological and social state. The article considers the essence of adaptive competencies, its components, factors affecting children in the process of migration, and recommendations for developing adaptive competencies.

Keywords: Migration, children, adaptive competencies, psychological adaptation, social adaptation, education, family, culture.

Аннотация: Статья посвящена проблеме формирования адаптивных компетенций детей в процессе миграции. Миграция может внести существенные изменения в жизнь детей, повлияв на их психологическое и социальное благополучие. В статье рассматривается сущность компетенции жизнестойкости, ее компоненты, факторы, влияющие на детей в период миграции, и рекомендации по формированию жизнестойкости.

Ключевые слова: Миграция, дети, адаптивность, компетентность, психологическая адаптация, социальная адаптация, образование, семья, культура.

XX asr oxiri – XXI asr boshlari jahon migratsiya jarayonlarining eng rivojlangan davri bo‘lib, migratsiyaning nafaqat turli yo‘nalishlari, balki shakllari ham tubdan o‘zgarib, ko‘pgina mamlakatlarda taraqqiyotning chuqurlashishida ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, huquqiy omillarning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsata boshladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNICEF bolalar jamg‘armasi tomonidan 2018-2020-yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, bolalarning 33 % ga yaqini ota-onalarining migratsiyaga chiqib ketishlari bilan o‘zlarini baxtsiz, 21 % i esa xavotirlanish tuyg‘usini his qiladilar. Mehnat migrantlari oilalarida kamida 2 ta bola (45 %) vasiylikda qoldiriladi, 63 % holatda bunday oilalarda bolalar onalari bilan yashaydilar. Ota-onasi yoki ulardan biri mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan bolalarning 33 % ida uydagi majburiyatlari ortganligini ko‘rsatgan [1]. Bu esa migrant oilada tarbiyalanayotgan bolalarning qator individual-psixologik, individual-tipologik xususiyatlarini, ularning psixofiziologik rivojlanish dinamikasini, hissiy-irodaviy hamda bilish jarayonlarining norentabelligining psixologik oqibatlarini, bolalarda o‘zini anglash va hissiy beqarorlikning shakllanib qolishini, kundalik kayfiyatning o‘zgaruvchanligini hamda psixoemotsional zo‘riqlashlarga beriluvchanlikni hamda o‘z yaqinlariga nisbatan frustratsiyaning shakllanish mexanizmlarini psixologik tahlil etish zaruratini yuzaga keltiradi. Bunday vaziyatlarda bolalarning moslashuvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish, ularning psixologik barqarorligini ta‘minlash va yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga ko‘maklashish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston o‘zining demografik xususiyatlari va ko‘p yillik an‘analari tufayli bugungi kunda aholining 60 foizdan ortig‘ini bolalar va yoshlar tashkil etadigan mamlakat hisoblanadi. Bolalar va oilalarga har tomonlama yordam ko‘rsatish uchun safarbar etilgan vazirliklar va idoralarning keng tarmoqli tizimi orqali bolalar himoya qilinadi. Shu nuqtai nazardan, migratsiya jarayonida bolalarning moslashuvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish O‘zbekiston uchun ham dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada ta‘lim muassasalari, psixologik xizmatlar va ijtimoiy tashkilotlar hamkorlikda ish olib borishi, bolalarga psixologik yordam ko‘rsatish, ularning ijtimoiy aloqalarini qo‘llab-quvvatlash va madaniy integratsiyalashuviga ko‘maklashishi zarur.

F.Parmonov olib borgan tadqiqot ishida migratsiya jarayoni qadriyatlar taransformatsiyasiga sabab bo'lishini ta'kidlagan [2]. Ma'lumki, har bir xalqning diniy, axloqiy va milliy qadriyatlar tizimi mavjud. O'zbekiston aholisining ham o'z milliy qadriyatlar tizimi mavjudligiga qaramay, migratsiyaga ketgan erkak yoki ayol o'zga millat qadriyatlar tizimini qisman xulq-atvorida shakllantiradi. Migrant vataniga qaytgach, albatta, o'zlashtirgan qadriyatlar tizimini oilasida joriy qila boshlaydi. O'zlashtirilgan qadriyatlar kelajak avlod uchun salbiy ta'sir qilayotgan globallashuv davrida o'zini ko'rsatmoqda [3]. Hozirgi kunda yurtimizda nafaqat mehnat migratsiyasi, balki ta'lim, sog'liqni tiklash, kasb egallash maqsadida va hatto nikoh migratsiyasi ham rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligima'lumotlariga ko'ra, 2022-yil 1-mart holatida 2 million 356 nafar yurtdoshimiz mehnat muhojirisifatida chet elda mehnat qilmoqda. Biroq bu sonlarni migrantlarni haqiqiy, deb ayta olmaymiz, chunki noqonuniy migrantlar ham juda ko'pchilikni tashkil qiladi [4].

Oila yoki jamoat doirasida bolalar migratsiya jarayonida turli ijtimoiy omillar bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch keladilar. Ushbu jarayonning murakkabligi va bolaning ijtimoiy muhitga moslashishidagi quyidagi jihatlarni alohida ta'kidlash lozim:

- Yangi muhitga ko'chish bolalarda stress va tashvishni oshirishi mumkin. Ular o'zlarining tanish muhitidan ajralishi va yangi do'stlar orttirishdagi qiyinchiliklarni his qilishlari mumkin. Bu ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va moslashuvchanlik qobiliyatini susaytirishi mumkin.

- Bolalar yangi madaniyat va til bilan tanishishda o'z kimligini qanday saqlashni o'ylashlari mumkin. Bu ularning shaxsiyati va o'ziga bo'lgan ishonchiga ta'sir qilishi mumkin. Madaniy o'zlikni saqlash va yangi madaniyatga integratsiyalashuv o'rtasidagi muvozanatni topish bolalar uchun muhim vazifa hisoblanadi.

- Bolalar uchun yangi muhitda do'stlar orttirish qiyin bo'lishi mumkin. Ular ijtimoiy muhitdagi tarzdosh yoki madaniy farqlarni qabul qilish, jalb etish va hamkorlikni boshqarish uchun astoydil harakat qilishlari kerak [5]. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va tengdoshlar bilan munosabatlarni o'rnatish bolalarning moslashuvchanlik kompetensiyasini oshirishga yordam beradi.

- Yangi maktabga kirish, yangi o'qituvchilar va sinfdoshlar bilan tanishish mushkul bo'lishi mumkin. Ta'lim jarayoniga moslashish va o'z bilimlarini rivojlantirish bolalarning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli kirishlari uchun muhimdir. Ta'lim

muassasalarida bolalarning moslashuvchanlik qobiliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish zarur.

- Bolalar har doim yangi madaniyatni qabul qilmasliklari mumkin, shuning uchun bu jarayon gradual bo'lishi zarur. Ular o'z madaniyatlarini saqlab qolishni xohlagan holda, yangi madaniyatni qabul qilish uchun qulay sharoit yaratish muhimdir. Madaniy bag'rikenglikni targ'ib qilish va turli madaniyatlarning o'zaro hurmatini ta'minlash bolalarning moslashuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

- Ota-onalar va jamiyat bolalarning ijtimoiy moslashishida muhim rol o'ynaydi. Oila va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi bolalarning yangi muhitga moslashishini osonlashtirishi mumkin. Ota-onalarni qo'llab-quvvatlash, ularga maslahatlar berish va ularni ta'lim dasturlariga jalb qilish bolalarning muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashga yordam beradi.

- Bolalarga ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash zarur. Guruh mashg'ulotlari, psixologik konsultatsiyalar va do'stlar bilan muloqot ularga yordam berishi mumkin. Maktab psixologlari va ijtimoiy xodimlarning xizmatlari bolalarga stressni yengishga, o'ziga ishonchni oshirishga va ijtimoiy aloqalarni o'rnatishga yordam beradi.

- Maktabdagi til ta'limi orqali bolalar yangi tilni o'rganish va ijtimoiy muhitga kirishni osonlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Til bilish qobiliyati bolalarga yangi do'stlar orttirishga, ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishga va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, migratsiya jarayonida bolalarning moslashuvchanlik kompetensiyalarini shakllantirish – bu ko'p qirrali va murakkab vazifa bo'lib, bolaning psixologik, ijtimoiy, madaniy va ta'lim sohalaridagi ehtiyojlarini inobatga olishni, shuningdek, oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning keng ko'lamlil hamkorlikdagi harakatlarini talab qiladi. Ushbu sa'y-harakatlar bolalarning yangi muhitga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlashga, ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga va ularning jamiyatga to'laqonli a'zo bo'lishlariga imkon yaratishga qaratilgan bo'lishi lozim. Xulosa qilib aytganda, migratsiya jarayonida bolalarning ijtimoiy muhitga moslashishi murakkab va ko'p qirralidir. Ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyatning faol ishtiroki, mahalliy jamiyat va tashkilotlar migrant bolalarga yordam berish va ularni ijtimoiy hayotga integratsiyalashish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqishlari bolalarning yangi sharoitda o'zlarini qulay his etishlari va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun muhim hisoblanadi. Ijtimoiy

moslashuv jarayoni bolalarni yanada kuchli va moslashuvchan shaxslar qilib tarbiyalashda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdusamatov H.U. Migrant Oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari. –Toshkent,2022.
2. Parmonov F., To‘rayev Sh., Daminov I. Migratsiya: musofir vatangadolar. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyot, 2015. – 112 b.
3. Xodjayev B.X. “Pedagogik aksiologiya” o‘quv qo‘llanma. T. “Fan va texnologiya”, 2011. - 156 bet.
4. Majidova D.A., Xusanova D.F., Bazarov A.A. Mehnat migrantlari oilalarida shaxslararomosabatlarning pedagogik-psixologik omillari. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021.
5. Alimov S. Aholi migratsiyasi ijtimoiy-axloqiy muhit transformatsiyasi omili sifatida. –Toshkent,2022.

**Research Science and
Innovation House**